

MAVZU: PEDAGOGIK MAHORATNING MOHIYATI VA MAZMUNI

Pedagogik mahorat to'g'risida tushuncha

Ofitserning pedagogik mahorati - uning psixologik-pedagogik tafakkuri, o'z xizmat faoliyatini amalga oshirish uchun zarur bo'lgan maxsus bilimi, malakasi va ko'nikmalari hamda hissiy-irodaviy sifatlari birligi bo'lib, u ofitser shaxsining yuksak taraqqiy etgan g'oyaviy, kasbiy, axloqiy, jangovar, tashkilotchilik va harbiy pedagogga xos xislatlari bilan uyg'unlikda ta'lim-tarbiya vazifalarini muvaffaqiyatli amalga oshirish imkonini beradi.

Pedagogik mahorat murakkab tarkibga ega. U harbiy-pedagogik faoliyat tarkibi va mazmuni bilan belgilanadi.

Tarkibiy jihatdan pedagogik mahorat o'qituvchi (metodist) mahorati va tarbiyachi mahoratiga ajratiladi.

O'qituvchi (metodist) mahorati ofitserning harbiy-pedagogik jarayonning qonuniyatlarini, xususiyatlarini, shaxsiy tarkibga ta'lim berish jarayonining maqsad va vazifalarini chuqur bilishida namoyon bo'ladi.

Pedagogik mahoratning bu elementi ofitserning o'z mutaxassisligini, harbiy ishni, psixologiya va pedagogika fanini, didaktika prinsiplarini va metodlarini, o'z o'quv fani metodikasini chuqur bilishga, boshqa fanlardan tushunchaga, keng dunyoqarashga ega bo'lishiga asoslanadi. Bilimlarni egallash, harbiy mutaxassis uchun zarur ko'nikma va malakalarni shakllantirish va rivojlantirish jarayonining mohiyatini chuqur bilish va tushunish mahoratli pedagogga xos xususiyatdir.

Tarbiyachi-ofitser mahorati askarlar tarbiyasining qonuniyatlarini, prinsiplarini, metodlarini, maqsad va vazifalarini, asosiy yo'nalishlarini bilishi va bu bilimlardan amalda to'g'ri foydalana olishi bilan ifodalanadi.

Tarbiyaviy ishda pedagog ta'sir ob'ektini, pedagogik ta'sir etish vositalarini, tarbiya prinsiplarini har tomonlama va chuqur bilsagina muvaffaqiyat qozonishi mumkin. Shuning uchun harbiy-pedagogik mahoratning yuksak cho'qqilariga erishmoqchi bo'lgan ofitser askar shaxsi va harbiy jamoa psixologiyasini, bo'ysunuvchilarning shaxsiy xususiyatlarini, ularga ta'sir ko'rsatuvchi omillarni, shuningdek axloqiy va huquqiy normalarni, umumharbiy nizomlar talablarini, Mudofaa vazirining buyruq va direktivalarini bilishi va amaliy faoliyatda, kundalik turmushda qo'llay olishi lozim. O'zining ichki tarkibi bo'yicha tarbiyachi mahorati yuksak darajada rivojlangan oddiy va murakkab aqliy ko'nikmalar va malakalar, psixologik-pedagogik bilimlar asosida shakllangan va rivojlangan hissiyotlar va iroda, amaliy faoliyat va odamlar bilan muloqot davomida shakllangan xislatlar, dunyoqarash birligidir.

Ofitserning pedagogik mahorati o'zining mezonlariga ham ega. Ularni qisqacha sanab o'tamiz:

1. Pedagogik faoliyatda qo'llanilayotgan usul, vosita, shakl va metodlarining ilmiy asoslanganligi.
2. Pedagogik amaliyotning pedagogika, psixologiya va boshqa fanlar yangiliklari va yutuqlari bilan hamohangligi.
3. Uzoq vaqt davomida o'zgarib turuvchi sharoitda ijobiy natijalarning barqarorligi, dolzarbligi, optimalligi va kelajakka yo'naltirilganligi.

4. Pedagogning o'zining va boshqalarning ilg'or ish tajribasini umumlashtira olishi va ommalashtirishi.

Pedagogik mahorat ko'p qirrali va keng ma'noli tushuncha bo'lib, uning shakllanishi va rivojlanishi uzoq vaqt davom etadi. Ofitserning harbiy-pedagogik xislatlarini va professional-pedagogik mahoratini shakllantirish va rivojlantirish ichki qarama-qarshiliklarga ega hamda ko'pgina omillarning ta'sirida kechuvchi jarayondir. Bu jarayon o'z-o'zidan kechmaydi, balki boshqariladigan bo'lib, birinchi navbatda har bir ofitserning bilimi saviyasi, dunyoqarashi, aqliy, estetik va jismoniy rivojlanishi darajasiga bog'liqdir.

Pedagogik mahoratining shakllanishi va takomillashuvi ofitser shaxsining professional, ijtimoiy, ruhiy va ma'naviy rivojlanishidagi qarama-qarshiliklarni engish orqali erishiladi. Tadqiqotlarning ko'rsatishicha, bu qarama-qarshiliklar quyidagilardan iborat:

- ofitserning bilimlari, umumiy ma'lumotlilik va xulqiy tajribasi o'rtasidagi qarama-qarshiliklar;

- ofitserning nimani va qanday bajarish kerakligini tushunishi va amaliy harakatlari o'rtasidagi qarama-qarshiliklar;

- turli sharoitlar va vaziyatlarda ofitserning o'zini tutishi bilan bog'liq qarama-qarshiliklar;

- pedagogik taktining rivojlanganligi darajasi to'g'risidagi ofitserning shaxsiy bahosi va boshliqlari, hamkasblarining fikri, bergan bahosi o'rtasidagi qarama-qarshiliklar va boshqalar.

Bunday qarama-qarshiliklarni hal etishning muhim sharti sifatida kasbiy shakllanish va rivojlanishning murakkab jihatlarini, ofitser uchun zarur bo'lgan sifatlarni tarbiyalash vazifalarini hal etishga xalaqit berayotgan omillarni bartaraf etish yo'llarini tarbiyachi va tarbiyalanuvchilar tamonidan to'g'ri tushunishni ko'rsatish mumkin.

Ofitserning professional sifatlarining, pedagogik mahoratining shakllanishiga jamiyatdagi turmush tarzi, kundalik faoliyat, jamoadagi ma'naviy-ruhiy muhit va boshqa omillar ham o'z ta'sirini ko'rsatadi.

Ofitserning pedagogik mahoratini takomillashtirishda quyidagi tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq:

1. Ofitserlarni kerakli ilmiy bilimlar bilan qurollantirish.

2. Turli vositalar va metodlar yordamida ofitser shaxsiga maqsadli va tizimli pedagogik ta'sir ko'rsatish.

3. Harbiy qismdagi xizmat va turmushni harbiy nizomlar talablari asosida tashkil etish.

4. Ofitserlarni ta'lim-tarbiya jarayoniga kengroq jalb etish.

5. Ofitserning o'z bilimlarini, umumiy madaniy saviyasini, harbiy-pedagogik mahoratini oshirish maqsadida o'z ustida mustaqil ishlashini, o'z faoliyati, xulqini nazorat qilishini tashkil etish va boshqalar.

2. Sharq uygʻonish davrida fan taraqqiyoti

Movarounnaxr VIII asrda arablar tomonidan bosib olingach, xalqimiz maʼnaviy hayotida jiddiy oʻzgarishlar sodir boʻldi. Islom dini oʻlkamiz ijtimoiy va maʼnaviy hayotida xukmron mafkura rolini oʻynay boshladi.

Arab xalifaligida yuz bergan ijtimoiy-siyosiy oʻzgarishlar, yagona islom dinining tarkib topishi madaniy, maʼnaviy hayotga ham taʼsir etdi. Unda katta koʻtarinkilik ruhini paydo qildi.

Bu koʻtarinkilik butun arab xalifaligini, Yaqin va Oʻrta Sharqni qamrab olganligi uchun Sharq Uygʻonish davri deb ataldi. Bu jarayon IX asrdan boshlanib, XV – XVI asrlargacha davom etdi.

Arab xalifaligida IX asrda vujudga kelgan Uygʻonish davri xalifalikning Bagʻdod, Damashq, Xalab shaharlarida boshlanib, barcha boshqa xalqlar madaniy hayotiga tarqalgan, bu esa u davlatlarning ham madaniy rivojlanishiga zamin tayyorlagan. Xalifalik emirilishi natijasida tashkil topgan mustaqil davlatlardagi madaniy rivojlanish xalifalik davrida madaniy rivojlanishning davomi boʻldi.

Xalifa Xorun ar-Rashid (786 – 833) va uning oʻgʻli Maʼmun davrida Bagʻdodda «Baytul hikma» («Donishmandlik uyi») (hozirgi Akademiya maʼnosida) tashkil etiladi. Mazkur Akademiya barcha ilm sohiblari toʻplangan markazga aylanadi. Uning qoshida jahon kutubxonasi tashkil etilgan, rasadxona ham boʻlgan, keyinchalik yangi kutubxona qurilgan. Bagʻdoddagi mazkur ilm markazi, oʻz navbatida, SHarq va Gʻarbda ilm-fanning taraqqiy etishiga, maʼnaviy hayotning yuksalishiga taʼsir etgan. Bu oʻrinda xalifa al-Maʼmunning ilm-fan ravnaqida koʻrsatgan homiyiligini alohida taʼkidlash joiz.

Xalifa al-Maʼmun ilm-fanni juda qadrlagan. U IX asr boshlarida xalifalikning Xurosondagi noibi boʻlgan vaqtida ham Movarounnahr va Xurosondagi olimlarni toʻplab, ularning ilmiy ijodiga sharoit yaratib bergan. Bular orasida al-Xorazmiy, al-Xuttaliy, al-Javhariy, al-Fargʻoniy, al-Marvaziy kabi vatandosh olimlarimiz ham boʻlgan. Al-Maʼmun xalifalik taxtiga oʻtirgach, u olimlarning barchasini Bagʻdodga chaqirib oladi.

SHuningdek, qadimgi yaratilgan madaniy yodgorliklar, ular xoh yunon, xoh arab, xoh Movarounnahr va Xuroson xalqining eng qadimgi antik davrlar madaniyati boʻlsin, Uygʻonish davri madaniyatining yaratilishi va rivojlanishiga asos boʻlib xizmat qildi.

Agar arablar Oʻrta Osiyoni bosib olib, bu erda ilgari mavjud boʻlgan fan va madaniyat oʻchoqlarini yoʻqotgan boʻlsalar, koʻp oʻtmay, qadimiy ilmiy anʼana asta-sekin tiklanib, natijada ilm-fanning etuk siymolari etishib chiqib boshlaydi. Bularning barchasining bir-biriga qoʻshiluv natijasida SHarqda bir butun madaniyat tarkib topadi va rivojlana boshlaydi.

Yaqin va Oʻrta Sharqda, jumladan Eron, Kavkaz orti va Oʻrta Osiyoda savdo aloqalarining rivojlanganligi, hunarmandchilikning taraqqiy etishi, iqtisodiy va madaniy aloqalarning barchasi umumiy rivojlanishga taʼsir etdi.

Bu davrda qishloq xoʻjaligida foydalaniladigan er maydonlari kengaydi, koʻplab sugʻorish inshootlari tiklandi va yangilari qurildi, paxta, zigʻir, kanop ekilib, ular tolasidan mato toʻqilgan. Movarounnahrda, xususan, Urganch, Fargʻona, Samarqand va Buxoro toʻqimachilik mahsulotlari, ayniqsa Samarqand va Buxoro shoyisi dunyoga mashhur boʻlgan.

Qishloq xo‘jaligi va hunarmandchilik sanoati mahsulotlarining ishlab chiqarilishi savdoning rivojlanishiga yo‘l ochdi. Natijada YAqin va O‘rta Sharq mamlakatlarining chet davlatlar: Ispaniya, Hindiston, Xitoy, Vizantiya bilan savdo ishlari ko‘lami ortib bordi.

Bu davrda arab tili ilmiy va aloqa tili edi. Maktablarda darslar arab tilida olib borilar edi. Rasmiy hujjatlar, shariat qoidalari arab tilida yuritilar edi. Ilmiy asarlar ham arab tilida yozilar edi. X asr o‘rtalariga kelib, fors-tojik tilida ham ish yuritila boshladi. Ammo yoziladigan hujjatlar, ishlar fors-tojik tilida bo‘lsa ham, arab imlosida yozilar edi.

O‘sha davrda Buxoroda katta kitob bozori bo‘lgan, kitob do‘konlarida olim va fozil kishilar uchrashib, ilmiy bahs, munozaralar o‘tkazganlar.

Abu Ali ibn Sino kitob do‘konlarining barida Forobiyning Aristotel «Metafizika»siga yozgan sharhlarini sotib olganligini o‘z tarjimai hoida hikoya qiladi. Buxoro amiri saroyida esa yirik kutubxona mavjud bo‘lgan. Bu kutubxonani o‘sha davrdagi SHeroz kutubxonasi bilan bellasha oladigan yagona kutubxona sifatida tan olganlar.

Somoniylar davrida Ro‘dakiy, Firdavsiy, al-Xorazmiy, al-Farg‘oniy, al-Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sinolar yashab ijod etganlar.

X asrning ikkinchi yarmida tashkil topgan Qoraxoniylar davlatida ham ba‘zi xonlar o‘z saroylarida kutubxonalar tashkil etdilar. Bu kutubxonalarda arab va hatto G‘arbiy Evropa olimlarining asarlari ham mavjud edi. Bu davrda turkiy til shakllanib bordi. Yusuf xos Hojib, Maxmud Qoshg‘ariy kabi olimlar o‘zlarining jahon ahamiyatiga ega bo‘lgan asarlarini yaratdilar.

XI asr boshida G‘aznaviylar davlati, keyinroq saljuqiylar, Xorazmshohlar davlati tashkil topdi. G‘aznaviylar davrida ham ilmiy, ijtimoiy-falsafiy fikrlar rivojlandi. Mahmud G‘aznaviy o‘z saroyiga juda katta madaniy boyliklarni to‘playdi, olimlarni ilmiy ishga jalb qiladi. Jumladan, Abu Rayhon Beruniy ham Mahmud saroyida yashab, mashhur «Hindiston» asarini shu erda yaratgan.

XI asrda Xorazmda ilm-fan ayniqsa taraqqiy etadi. Xorazm shohi Ma‘mun o‘z saroyiga eng zabardast olimlarni taklif etadi. U tashkil etgan «Baytul hikma» – «Donishmandlik uyi»da qomusiy olimlar – Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, tarixchi Miskavayx, riyoziyotchi Abu Nasr ibn Iroq, faylasuf Abu Sahl al-Masihiy, tabib Abdulhayr Hammor kabi olimlar ilmiy ijod bilan shug‘ullanganlar, lekin toju taxt uchun kurash natijasida bu ilm dargohi o‘z faoliyatini to‘xtatadi.

Saljuqiylardan Alp Arslon Muhammad hokimiyatni boshqargan davrda uning vaziri Nizom ul-Mulk o‘z davrining mashhur siyosiy arbobi va ma‘rifatparvar inson sifatida do‘ruq qozondi. Uning to‘liq ismi Abu Ali al-Hasan ibn Ali ibn Ishoq at-Tusiy bo‘lib, Nizom ul-Mulk uning fahrli taxallusidir.

Nizom ul-Mulkning maorifni rivojlantirishdagi xizmatlari beqiyosdir. U 1067 yilda Bag‘dodda o‘zining shaxsiy jamg‘armasiga o‘sha davrning eng mashhur o‘quv yurti – «Nizomiyya» madrasasini qurdiradi. U olimlar, din peshvolari, so‘fiylarga katta e‘tibor berib, ularga homiylik qiladi.

Uning katta xizmatlaridan yana biri taqvimni isloh qilish bo‘ldi. U 1074 yilda O‘rta Sharq mamlakatlari uchun kalendar-taqvim tuzadiki, bu taqvim hozirgacha eng takomillashgan taqvimlardan hisoblanadi.

Sharq «Uygʻonish davri»da ilm-fan rivojlanishi uch yoʻnalishda boʻldi.

Birinchi yoʻnalish – matematika-tabiiyot yoʻnalishi boʻlib, bularga matematika, astronomiya, kimyo, geodeziya, mineralogiya, tibbiyot, farmakologiya va boshqa shularga turdosh fanlar kiritilib, Muhammad Muso Xorazmiy, Ahmad Fargʻoniyalar matematikaga oid, Zakariyo ar-Roziy kimyo va tibbiyotga oid, Abu Ali ibn Sino, Jurjoniy tibbiyot va falsafa, Abu Rayhon Beruniy tibbiyotga oid yirik asarlar yaratdilar.

Ikkinchi yoʻnalish – ijtimoiy-falsafiy yoʻnalish boʻlib, bunda falsafa, tarix, mantiq, fiqh, ruhshunoslik, notiqlik va boshqa fanlar boʻlib, bu sohada Forobiy, al-Kindiy, ibn Sino, Zahiriddin Bayhaqiy, Muhammad Narshaxiy va boshqalar faoliyat koʻrsatganlar.

Uchinchi yoʻnalish – taʼlimiy-axloqiy yoʻnalish boʻlib, bu sohada qomusiy olimlar oʻz qarashlarini ijtimoiy-falsafiy va ilmiy asarlari tarkibida yoki axloqiy asarlarida bayon etsalar, adib va tarbiyashunos olimlar taʼlimiy-didaktik asarlarida ifodalaganlar. Maʼlumki, Sharq Uygʻonish davrida inson muammosi maʼnaviyat sohasidagi asosiy masala boʻlgan. Shuning uchun ham taʼlim-tarbiya masalalariga katta eʼtibor berilgan. Yaratilgan asarlarda Sharqqa xos boʻlgan insonning axloqiy-ruhiy kamolotini ulugʻlash etakchi oʻrin tutgan.

Insonparvarlik gʻoyasining amalga oshirishning asosiy vositalari sifatida yuksak axloqiy odatlar, insoniy munosabatlar va xislatlarni tarkib toptirishga olib keluvchi taʼlim-tarbiyani amalga oshirish muhim masala qilib qoʻyilgan. Zero, insoniylik gʻoyasida yuksak axloqiy xislatlar ifodalangani uchun ham Sharq Uygʻonish davri falsafasi va pedagogikasida taʼlimiy-axloqiy yoʻnalish muhim ahamiyat kasb etdi.

Axloq masalasi faylasuflarning, buyuk mutafakkirlarning ham, tarixchi-yu, shoir va adiblarning ham birdek diqqat markazida boʻldi. Taʼlimiy-axloqiy risolalar paydo boʻlib, axloqning ham nazariy, ham amaliy masalalari tahlil etildi. «Fozil odamlar shahri», «Baxt saodatga erishuv haqida», «Axloq haqida risola», «Ishq risolasi», «Qutadgʻu biligʻ», «Axloqi Nosiriy», «Axloqi Jaloliy», «Axloqi Muxsiniy», «Hibatul-haqoyiq», «Qobusnoma», «Guliston», «Boʻston», «Mahbub ul-qulub» kabi Forobiy, ibn Sino, YUsof xos Hojib, Ahmad YUgnakiy, Tusiy, Davoniy, Koshifiy, Kaykovus, Saʼdiy, Jomiy, Alisher Navoiylarning taʼlimiy-axloqiy asarlari inson shaxsini maʼnaviy-axloqiy shakllantirish muammosini hal etishda sof pedagogik asarlar sifatida muhim ahamiyatga ega. Mazkur taʼlimiy-axloqiy asarlarda insonning maʼnaviy kamolga etishi yuksak xulq-odob, ilm-fanni egallash asosidagina amalga oshishi mumkin, degan gʻoya ilgari surildi. Ilmiy bilimga asoslanuvchi metod shakllandi, natijada aqliy tarbiya olimlar diqqat markazida boʻldi: Xorazmiy, Forobiylar bu metodni asoslab berishgan buyuk mutafakkirlar edi. Bular bilan bir qatorda oʻsha davrda yaratilgan barcha taʼlimiy-axloqiy risolalarda aqliy tarbiyada zehni tarbiyalash, aqliy kamolot yoʻllari, bilimlarning asl mohiyatini yoritishga harakat qilganlar.

Sharq Uygʻonish davri taʼlimiy-axloqiy qarashlarining asosi Islomning umuminsoniy va oʻziga xos haq xuquqlariga, talab va tamoyillariga borib taqaladi. Zero, barcha mutafakkirlarimizning taʼlim-tarbiyaga oid qarashlarining asosi ham Qurʻon va Hadis taʼlimotiga asoslanadi. Chunki koʻrib chiqilayotgan davrdan boshlab savod oʻrgatish ulardagi koʻrsatmalarni oʻzlashtirish bilan birga olib borilgan. SHunga koʻra, Qurʻon va Hadislardagi pand-nasihatlar ham olimlar, ham adiblar ijodiga taʼsir etgan. Hadislarda umuminsoniy fazilatlarga alohida urgʻu berilgan. Ularda ilgari surilgan musulmonlarning muhim xislatlari: halollik, poklik, sahovat, himmat, mehr-

oqibat, ehson, sharm-hayo, ilm izlash, muomala qoidalari, axloq mezonlari va boshqalar o'z ifodasini topgan va SHarq adabiyotiga, jumladan ta'limiy-axloqiy asarlarga ta'sir etdi. Hadislar Yusuf Xos Hojibning «Qutadg'u bilig» asaridan boshlanib, Kaykovusning «Qobusnoma», Ahmad Yugnakiyning «Hibatul-haqoyiq», Sa'diyning «Guliston», Jomiyning «Bahoriston», Alisher Navoiyning «Mahbub ul-qulub» va boshqa asarlar negizida ko'rinadi. Ham g'oya, ham mazmun, ham shakl buning dalilidir.

Masalan, Qur'onda ham, Hadislarda ham, ta'limiy-axloqiy dostonlarda ham ilm ta'rifi bilan birga xulq-odob qoidalari, turmush odobi yoritiladi.

Mazkur ta'limot mutafakkirlarimiz ijodida ilmiy talqin etiladi. Xususan, al-Forobiyning ijtimoiy-falsafiy qarashlarida ilgari surilgan ta'limiy-axloqiy fikrlari ham avvalo Qur'on oyatlarining ilmiy talqinidir. Chunki, Forobiy ilm yo'li bilan Allohni tanigan. Zero, Qur'onda ham, Hadisda ham haqiqiy ilm tolibi musulmon hisoblanishi ta'kidlanadi.

Mutafakkirlarning o'z ishlarida o'qitish va ta'lim-tarbiyaga e'tibori natijasida, pedagogika va didaktika masalalariga qiziqish orta bordi. Aniq fanlarni o'qitishning uslubi masalalariga ayniqsa e'tibor kuchaydi. Pedagogika sohasida inson va uni kamolga etkazish bilan bog'liq muammo asosiy o'rinni egalladi.

Mutafakkirlar ta'lim-tarbiyaga oid fikrlarida inson kamoloti muammosini baxt-saodatga erishish uchun sharoit yaratish, degan g'oyani ilgari surish bilan bog'lab talqin etadilar. Forobiy, Nizomiy, Jomiy, Navoiy asarlarida oliy axloq, ma'rifatga, ma'naviy erkinlikka erishuv baxt-saodat, deb talqin etildi va bu baxt-saodat adolatli, zulmdan xoli, ideal etuk jamoa va ideal rahbar, hokim bilan bog'liq holda tasavvur etildi.

Sharq Uyg'onish davri ta'limiy-didaktik asarlarida inson shaxsining kamol topishi yo'llari, usullari bayon etildi. Haqiqiy yuksak axloqli inson xislatlari haqida fikr yuritilganda birinchi o'rinda adolatparvarlik g'oyasi yotadi. Masalan, adolatli hukmdor haqida so'z yuritilar ekan, agar hukmdor adolatli bo'lsa, uning qo'l ostidagi fuqarolar ham baxt-saodatli hayot kechiradi, deyilgan.

Uyg'onish davri pedagogikasida kasb-hunar o'rganish ilm o'rganish bilan bab-baravar talab etiladi. Har bir yosh yigit, u qaysi tabaqa farzandi bo'lmasin, kasb-hunar o'rganishi zarurligi alohida ta'kidlanadi. Har bir hunarmand mehnat madaniyatini, o'z kasbiga e'tiqod va hurmatni tarkib toptirish, tejamkorlikka rioya etish, o'z ishini sifatli bajarishga yo'llangan.

Bundan tashqari insonni kamolotga etkazuvchi axloqiy xislatlar sifatida do'stlik, sadoqat va vafo, sevgi va muhabbat, vatanparvarlik, samimiylik, saxovat, muruvvat, erkinlik, irodalilik, jasurlik kabilar ilgari suriladi. Salbiy xislatlar sifatida rashk, riyokorlik, xudbinlik, ochko'zlik, hirs, sotqinlik kabilar qoralanadi.

Xulosa qilib aytganda, islom dinining yoyilishi, markazlashgan Arab xalifaligida ilm-fan taraqqiyoti, ijtimoiy-iqtisodiy yuksalish Movarounnahr va xurosonda IX asrlarga kelib ma'naviy ko'tarilish – «SHarq Renesansi» – Uyg'onish davrini boshlab berdi.

Butun Sharqda bo'lgani kabi Movarounnahrda ham ilm-fan va ma'rifat sohasida o'z xizmatlari bilan dunyoga mashhur bo'lgan faylasuf va munajjim, matematika, fizika, tibbiyot, tarix, til va adabiyot, pedagogika sohasida ilmiy merosi bilan nom

qoldirgan al-Xorazmiy, Abu Nasr Forobiy, al-Fargʻoniy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino kabi qomusiy olimlar etishib chiqdi.

Ular oʻz ishlarida odob-axloq masalalariga ham katta eʼtibor berdilar. Bularda ilgani surilgan gʻoyalar insonning ham aqliy, ham axloqiy jihatdan kamol topishida, pedagogik fikr taraqqiyotida katta ahamiyatga ega boʻldi.

Shuningdek, Sharq uygʻonish davrida sof pedagogik asarlar yaratib, taʼlim-tarbiyada inson etukligining xususiy va umumiy yoʻllari haqida oʻlmas taʼlimoti bilan nom qoldirgan tarbiyashunos olimlar ham maydonga keldi.

3. Sharq mutafakkirlari ustoz-tarbiyachining shaxsiy fazilatlari toʻgʻrisida

Insoniyat tarixining barcha bosqichlarida yosh avlod tarbiyasi, komil insonni tarbiyalab etishtirish masalasi eng muhim vazifalardan sanalib kelingan. Shu sababli, har doim oʻqituvchi va tarbiyachiga alohida hurmat va eʼtibor koʻrsatilgan. SHu bilan birga ularning kasbiy mahoratiga, bilimi saviyasiga, axloqiy sifatlariga yuksak talablar qoʻyib kelinadi.

Maʼlumki, umumiy taʼlim maktablarida, oʻrta maxsus va oliy oʻquv yurtlarida yoshlarga taʼlim-tarbiya beruvchi mutaxassisni oʻqituvchi, muallim, pedagog, ustoz, mudarris, domla deb yuritiladi. Oʻqituvchilik eng qadimiy va boqiy kasblardan hisoblanadi. Oʻqituvchilik kasbining, u bilan birga pedagogika ilmining, pedagogik axloqning vujudga kelishi tarbiyaning paydo boʻlishi, yaʼni insonlar toʻplagan yurish-turish, hatti-harakatlar, mehnat sohasidagi dastlabki tajribalarni, urf-odatlarini, aqliy, axloqiy, ilohiy bilimlarni yoshlarga oʻrgatish; yozuv ixtiro qilingach oʻqish, yozishni oʻrganish uchun tashkil etilgan dastlabki maktablarning paydo boʻlishi bilan uzviy bogʻliq.

Odamlar toʻplagan turmush tajribasini yoshlarga oʻrgatish, ularni hayotga, mehnat faoliyatiga tayyorlash ehtiyoji natijasida qadim zamonlardayoq taʼlim va tarbiya mustaqil ijtimoiy faoliyat sifatida paydo boʻldi.

Materialistik taʼlimotga koʻra ibtidoiy tuzum davrida tarbiya mehnat jarayonida vujudga kelgan, jamoada amalga oshirilgan; yoshlarga mehnat koʻnikmalari, jamoaning urf-odatlarini, marosimlarini bajarish oʻrgatilgan. Ibtidoiy jamoa tuzumining urugʻchilik bosqichida tarbiya ijtimoiy vazifa sifatida ajralib chiqqan, yaʼni keksa yoshdagi kishilar bolalarni tarbiyalash ishi bilan shugʻullangan. Bolalar tanasini chiniqtirish, chidamlilikka oʻrgatish, harbiy-jismoniy mashqlarni bajartirishga koʻproq eʼtibor qaratilgan.

Ibtidoiy jamoa tuzumining emirilish davrida bola tarbiyasi oilada amalga oshiriladi. Ayrim kishilar tajriba natijasida dehqonchilik, chorvachilik, tabibchilik, kasb-hunar sohalarida toʻplangan aqliy, axloqiy bilimlarni oʻz bolalariga, yaqin kishilar va hukmdorlarning bolalariga oʻrgata boshlaydilar.

Ilohiy taʼlimotga koʻra tarbiya bu oʻzligini anglash, oʻz-oʻzini boshqarish, tevarak atrofdagi olamni bilib olish, er yuzida va jannatda yashash uchun hozirlik koʻrish, tangri dorgohiga intilishdan iborat. Dinlar paydo boʻlgach, diniy tarbiya muqaddas kitoblardagi gʻoyalar asosida ota-onalar yoki maxsus tayyorlangan kishilar tomonidan amalga oshirila boshlagan.

Imom Buxoriyning «Al-jomiʼ as-sahih» asarining «Ilm kitobi» boʻlimida (Hadis. Birinchi kitob. Toshkent, 1991, 28-51-betlar) ilm egallash fazilati va xosiyatlari, ilm oʻrganish va oʻrgatish odobi toʻgʻrisida fikrlar berilgan. Bu erda ilm egallash odobining

54 qoidasi haqida hikoyat qilingan. Ularda Muhammad paygʻambarning ilm oʻrgatish va oʻrganishga doir pand-nasihatlarini bayon etilgan. Islom dini qabul qilingan mamlakatlarda maktab va madrasalarda saboq bergan mullalar (muallimlar), mudarrislar va tolibi ilmlar bir necha asrlar davomida bu pand-nasihatlariga amal qilganlar. Ularning tahlili ilm oʻrgatuvchi va oʻrganuvchilarga nisbatan quyidagi didaktik talablarni qoʻyadi va pedagogik – axloqiy gʻoyalarni ifodalashga imkon beradi:

- ilm beruvchining ovozi tinglovchilarning hammasiga eshitilishi, meʼyorida boʻlishi;

- ilm mazmunini «aytgan edilar, xabar beradilar, guvohlik beradilar» kabi samimiy yoqimli soʻzlar bilan ifodalash;

- biror taʼlimiy yoki tarbiyaviy masalani oʻrtaga tashlab, muhokama, munozara yoʻli bilan oʻrgatish;

- ilm oʻrganish va oʻrgatish uchun maʼlum kunlarni qatʼiy belgilab qoʻyish;

- ilmni fahmlab, teran tushunib, anglab oʻrganish, esda mustahkam saqlash;

- teran tushunilgan, yaxshi anglab olingan ilimlarni yod olish;

- ilm oʻrgatish jarayonida bolaga, lozim hollarda, tanbeh berish mumkinligi;

- kishi ilmni oʻzi oʻrganib, oʻzgalarga ham oʻrgatishi, ilmga oʻzi amal qilishi zarurligi;

- ilmning susayishi, ilmga eʼtiborsizlik jamiyatni muqarrar inqirozga etaklashini tushunish;

- ilmni oson, engil qilib, odamlarni bezdirmay oʻrgatish;

- ilmni soʻrab bilib olish, ilm oʻrganishda uyalmaslik, oʻzi uyalsa, boshqa birov orqali soʻrab bilib olish lozimligi;

- ilmga doir savol bergan odamga soʻraganidan koʻra koʻproq javob qaytarish;

- bilim tinglovchiga tushunarli boʻlsin uchun har bir gapni bir necha marta (uch bor) qaytarishning afzalligi;

- ilmni ishtiyoq bilan oʻrganishning afzalligi;

- ayollarga ham ilm oʻrgatish lozimligi;

- eshitganni yaxshiroq bilib olish, mukammal tushunish uchun qayta soʻrash joizligi;

- ilmni bilgan kishi bilmaganga, eshitganlar eshitmaganlarga etkazish lozimligi;

- ilm berayotgan ulamoning soʻzlariga jim turib, diqqat bilan quloq solishning maʼqulligi;

- odamlarga juda oz bilishlarini anglatish;

- ilmni tushunishni, ilm olishni istamagan kishi oʻrniga ilmni tushunadigan qavmga (kishilarga) oʻrgatish joizligi.

Islom taʼlimotida bayon etilgan bu didaktik gʻoyalar musulmon maktablarida oʻqituvchi va oʻquvchilar oʻrtasidagi muomala munosabatlarni tartibga soluvchi axloqiy qoidalar sifatida amaliyotda qoʻllanilgan. Ular Markaziy Osiyoda yashagan allomalarning tarbiyashunoslikka doir taʼlimotlari uchun ilmiy zamin vazifasini ham bajargan.

Axloqiy pand-nasihatlarining, ta'lim-tarbiyaning ijodkori ham, asrlar davomida yoshlarni kamolot sari etaklab, ularga hayot ilmini, turmush saboqlarini o'rgatib kelgan to'ng'ich tarbiyachi ham – hayot, xalqdir. Er yuzidagi barcha kishilar singari turkiy qabilalar ham qadim zamonlardayoq hayotiy ehtiyoj taqozosi bilan o'z bolalarini sog'lom, baquvvat, mehnatsevar, katta-kichiklarni izzat-hurmat qiladigan, xushaxloq, botir, jamoani, vatanni himoya qila oladigan mard kishilar bo'lib ulg'ayishlarini orzu qilganlar. Tarbiya sohasida to'plagan tajribalarini, orzu-istaklarini umumlashtirib, maqol, topishmoq, ertak, rivoyat, hikoyat, doston kabilar shaklida ifodalab yoshlarga, oila a'zolariga, boshqalarga o'rgatganlar. Shu tariqa o'zbek xalq pedagogikasi vujudga kelgan. Unda ijobiy axloqiy sifatlar, fazilatlar ulug'lanadi, salbiy illatlar esa qoralanadi.

O'zbek xalq pedagogikasining shaxs va jamiyat uchun foydali, ilg'or, axloqiy g'oyalari og'izdan-og'izga, avloddan-avlodga o'tib, folklor asarlari, milliy oilaviy urf-odatlar, an'analar sifatida bizgacha etib kelgan.

O'zbek xalq pedagogikasi asarlarida murabbiy, ustoz eng hurmatli, mo'tabar inson sifatida ulug'lanadi. "Ustoz otangdan ulug'", "Ota-ona bolani dunyoga keltiradi, ustoz esa uni yuksaklikka, osmonga ko'taradi" kabi hikmatlarda murabbiy, ustozlarning mehnati, qadr-qimmatini ulug'lanadi.

Qayum Nosiriyning "Favoqih al julaso" ("Do'st bog'ining mevalari") asarida shunday bayon etiladi:

"Bir kuni Iskandardan:

– Sen ustozingni onangdan ko'ra yaqinroq hurmat qilar ekansan, shu rostmi?" – deb so'radilar.

– Ha, – deb javob berdi Iskandar, – ona meni yo'qlik osmonidan olib tushdi, ustozim esa erdan ko'kka ko'tardi".

Ko'plab hikmat va maqollar o'rin olgan "Otalar so'zi" nomli asarda esa shunday hikoyat keltirilgan.

"Buzurgmehrdan:

– Nima uchun ustozingni otangdan afzalroq hurmat qilasan? – deb so'radilar.

– Chunki otam meni o'tkinchi hayotga olib keldi, ustozim esa boqiy hayot bag'ishladi, – deb javob berdi".

YUqorida bayon etilgan fikrlardan ko'rinadiki, xalqimiz ustozlarga, o'qituvchilarga, tarbiyachilarga juda katta hurmat va e'tibor qaratadi. Bu esa, o'z navbatida, ulardan juda katta mas'uliyat, bilimdonlik, mahorat, fidoiylilik talab qiladi.

"Otalar so'zi" asarida shunday satrlar keltirilgan:

"O'zi haqida o'ylamay, faqat elga bilim berish haqida o'ylagan olim kishi xuddi shamga o'xshaydi, u o'zini yondiradi va xalqni ziyoli qiladi".

"Haqiqiy olim shunday kishiki, uning so'zi, o'yi, fikri va ishi bir xil bo'ladi".

"Olimning yomonligi kemanding sinishiga o'xshaydi. Chunki kema sinsa ham o'zi cho'kadi, ham o'zgalarni cho'ktiradi".

"Olim qachonki o'zining barcha his-ehtiroslarining ustidan hokim bo'lolsa, shundagina uni olim deyish mumkin".

"Olimlar bilan o'tirsang, foyda olasan, chunki gul yonida o'tirgan odamga gul hidi urib qoladi".

"Olim ko'r bo'lsa ham dunyoni ko'radi. Johil sog' bo'lsa ham uzoqni ko'rmaydi".

"Odamning eng yomoni nodon bo'lib, foyda keltirmaganidir".

Oʻrta asr Sharqining mashhur mutafakkiri, qadimgi Yunon ilmi va falsafasining Sharqdagi eng yirik targʻibotchisi va uning rivojiga ulkan hissa qoʻshgan, “ikkinchi muallim” nomini olgan Abu Nasr al-Forobiy (873 – 930) oʻz asarlarida har bir kishi jamiyatga, davlatga munosib inson boʻlishi uchun taʼlim va tarbiya olishi lozim deb hisoblaydi. Yoshlarga taʼlim va tarbiya beradigan ustoz shogirdiga nisbatan juda qattiq zugʻum qilishga intilmasligi, shuningdek, haddan tashqari koʻp yon berishga ham intilmasligi lozim, chunki ortiqcha zugʻum shogirdga ustozga nisbatan nafrat uygʻotadi, bordi-yu, shogird ustozning juda ham yumshoqligini payqab qolsa, bu hol ustozni mensimaslikka va u beradigan bilimga sovishiga olib keladi, deb uqtiradi u.

Forobiyning taʼkidlashicha, har bir kishining feʼl-atvoriga qarab tarbiya ikki usul – ixtiyoriy va majburiy usullar bilan amalga oshirilishi mumkin. Bordi-yu, tarbiyalanuvchilar fan va hunar oʻrganishga moyillik bildirsalar, ularga nisbatan ilhomlantirish, ragʻbatlantirish usuli qoʻllaniladi; aksincha, mabodo ular oʻzboshimcha va itoatsiz boʻlsalar, majburiy usulni qoʻllash mumkin.

Musulmon maktabida ishlaydigan kishilardan ziyrak, aqlli va axloqli odam boʻlish talab etilgan. Xalq aqlli kishilarni dono deb ataydi. Forobiyning koʻrsatishicha, aqlli kishi – oʻtkir zehn-idrokli, fazilatli boʻlishi, oʻzining qobiliyati va idrokini yaxshi ishlarga yoʻnaltirishi, yomon ishlardan oʻzini saqlashi lozim. Forobiy “Aql toʻgʻrisida” nomli risolasida oʻzida oʻn ikki xislatni birlashtirgan kishinigina axloqli odam deb hisoblaydi. Bu hislatlar qatoriga quyidagilar kiradi:

- odamda barcha organlar mukammal taraqqiy etgan boʻlishi;
- barcha masalalarni tezda va toʻgʻri tushuncha olishi;
- xotirasi baquvvat, zehni oʻtkir boʻlishi;
- soʻzlarni aniq, fikrni ravon bayon eta olishi;
- oʻqishga muhabbatli boʻlishi;
- meʼyorga amal qila olishi;
- haqiqatni va haqiqat tarafdorlarini sevadigan, yolgʻonchilarga nafrat bilan qaraydigan boʻlishi;
- gʻurur va vijdonini qadrlaydigan boʻlishi;
- mol-dunyoga mukkasidan ketmagan boʻlishi;
- adolatni sevadigan, jabr-zulm oʻtkazuvchilarga nafrat bilan qaraydigan boʻlishi;
- qatʼiylik koʻrsata olishi;
- qoʻrqmas va jasur boʻlishi.

Sanab oʻtilgan hislatlarni umumlashtirgan holda quyidagi fikrni bildiradi: «Oʻqituvchi aql-farosatga, chiroyli nutqga ega boʻlishi va oʻquvchilarga aytmoqchi boʻlgan fikrlarni toʻla va aniq ifodalay olishni bilmogʻi zarur. SHu bilan birga oʻz or-nomusini qadrlashi, adolatli boʻlishi lozim. Ana shundagina u insoniylikning yuksak darajasiga ega boʻladi va baxt choʻqqisiga erishadi», deb taʼkidlaydi Farobiy. Mutafakkir Farobiy oʻqituvchi shaxsiga xos qator fazilatlariga xolisona, oqilona sharh berish imkoniyatiga erishgan buyuk zotdir. SHuning uchun mazkur sharhlar, ilmiy ilovalar, teran fikrlar, ibratli mulohazalar hozirgi kunda ham oʻz dolzarbligini yoʻqotmagan.

Buyuk qomusiy olim, faylasuf, pedagog Abu Rayhon Beruniy (973 – 1048)ning pedagogik ijodida inson va uning baxt-saodati, ta'lim-tarbiyasi, kamoloti bosh masala bo'lgan.

Buyuk pedagog olimning tarbiyaning maqsadi, vazifalari va roli, inson, yosh avlodning rivojlanishi haqidagi fikrlari chin ma'noda insonparvarlik va insonshunoslik asosiga qurilgan.

Bilish va tarbiyaning tabiatga uyg'unlik prinsiplarini Beruniyning hamma asarlarida kuzatish mumkin. Beruniy insonni tabiatning bir qismi deb bildi. Tabiat va jamiyat ilmni o'rganishda "o'zim tekshirib ko'rmaguncha ishonmayman" degan shiorga butun umr amal qildi.

Beruniy o'sha vaqtda keng tarqalgan o'qitishning sxolastik metodlariga qarshi chiqib, "o'quvchini hamma narsaga o'rgatish" san'atiga, tabiat ko'rsatmalariga asoslanishga, bolaning shaxsiy xususiyatlarini hisobga olishga chaqirgan edi. "Maqsad gapni cho'zish emas, – deydi Beruniy, – balki o'quvchini zeriktirmaslik. Chunki doimo bir xil narsaga qarayverish malollik va sabrsizlikka olib keladi. O'quvchi fandan-fanga o'tib tursa, turli bog'larda yurganga o'xshaydi. Birini ko'rib ulgurmay, boshqasi boshlanadi va o'quvchi "Har bir yangi narsada o'ziga yarasha lazzat bor" deyilganidek, ularni ko'rishga qiziqadi va ko'zdan kechirishni istaydi. Bir xil narsa charchatadi, xotiraga malol keltiradi", – deb yozgan.

Beruniy ta'lim jarayonining tabiatiga chuqur kirib borib, bolalarning yosh xususiyatlarini hisobga olish asosiga qurilgan o'qitish tabiatga uyg'unligini uqtiradi.

Beruniy o'qitish jarayonida bolalarga tushunarli bo'lmagan so'zlarni quruq yodlashga qurilgan ta'limni qattiq qoralaydi. U yozadi: "Tushunish yodlashdan yaxshiroq va afzaldir". Ikkinchi bir asarida esa bu talabni chuqurlashtirib, "kuzatishning ko'pligi ko'rilgan narsalarni eslab qolish qobiliyatini yaratadi" degan fikrni bildiradi.

Beruniyning pedagogik g'oyalaridan eng muhimi bilimni puxta va mustahkam egallash zarurligidir. Tarbiyashunos olim o'quvchiga murojaat qilib, shunday deydi: "Biliming shunday bo'lishi kerakki, u yalang'ochligingda ham o'zingda qolsin, bilimingni hammomdagi ho'llik ham yuvolmasin".

Bilimlarning o'quvchilarga tushunarli bo'lishi, ta'limda samaradorlik uchun Beruniy quyidagilarga amal qilishni tavsiya etadi:

- sezgi organlarining ma'lumotlariga ko'ra bilishni davom ettirish;
- fanni o'rganayotganda fikrlash, xotirlab esga olish zarur;
- o'rganilayotgan ilmlarni to'la bilib olish uchun o'sha ilmni tashkil etib turgan elementlarni puxta o'rganib chiqish;
- bilishda oddiydan murakkabga, ma'lumdan noma'lumga, yaqindan uzoqqa, osondan qiyinga, dalillardan xulosalarga qarab borish;
- uzoq o'tmishga oid bilimlarni o'rganganda shu ilm, fan tarixini o'rganish;
- hodisalarni, fan asoslarini bir-birlariga taqqoslab, solishtirib har tomonlama chog'ishtirib o'rganish.

Abu Ali ibn Sino (980 – 1037) o'rta asrda etishgan buyuk donishmand edi. U falsafa, tabobat, falaqiyot, ekologiya, botanika, geologiya, musiqa, adabiyot kabi fan sohalariga bag'ishlab asarlar yozgan. U o'z asarlarida ta'lim-tarbiyaga oid qimmatli fikrlarni ham keltirgan. Uning fikricha, tarbiya yagona jarayon bo'lib, yoshlarga aqliy, jismoniy, nafosat, axloqiy tarbiya berishni va hunar o'rgatishni nazarda tutadi. "Tib

qonunlari” asarida bolani olti yoshdan o‘qitish va tarbiyalash uchun muallimga topshirish haqida so‘z yuritiladi. Ibn Sino ta’lim jarayonida quyidagi qoidalarga amal qilish lozimligini ta’kidlaydi:

- o‘qitishda oddiydan murakkabga qarab borish;
- bolaning qobiliyat va mayllarini e’tiborga olish;
- bolaga kuchi etadigan mashqlarni bajartirish;
- ta’limni jismoniy mashqlar bilan qo‘shib olib borish.

Uning fikricha, bolaga ta’lim va tarbiya berish uchun sahovatli, dono, iymonli, axloqiy va aqliy tarbiya usullarini yaxshi biladigan, irodasi kuchli muallim va tarbiyachini tanlash zarur. Muallim sog‘lom, pok, halol, xushmuomala kishi bo‘lmog‘i lozim. Barkamol inson qilib etishtirish uchun tarbiyachi bolani o‘rni bilan rivojlantirishni ham, o‘rni bilan jazolashni ham bilsin. Vaqti-vaqti bilan bolani maqtab, yomon xulqini qoralab, yaxshi qiliqlarini o‘z vaqtida rag‘batlantirib ham turishi kerak.

Ibn Sinoning ko‘rsatishicha, muallim avvalo bolaga Qur‘on ta’limotini o‘rgatishi lozim, so‘ngra bolaning nimaga qiziqishini, qaysi fanga, kasbga yoki san‘atga mayli borligini aniqlashi zarur. Bilim va hunarni bolaning hayot kechirish va yashash vositasi deb bilsin. So‘ngra biror kasb-hunarni mukammal o‘rganishi kerak. Ilm va hunar o‘rganayotganda bolaning qobiliyati, qiziqishi va mayllarini e’tiborga olish zarur. Aks holda ta’lim va tarbiya kutilgan natija bermaydi. SHuning uchun muallim bolaga ta’lim berishga kirishishdan oldin o‘quvchining harakatini o‘rganishi va bilim darajasini aniqlashi kerak. Bunda avvalo bola diqqatining xususiyatlarini, qiziqishlarini va qobiliyatlarini e’tiborga olib, unga qaysi hunar yoki san‘atni o‘rganishi mumkinligini ko‘rsatishi kerak.

Boshqalarga bilim, ziyo tarqatuvchi, tarbiya beruvchi insonlar haqida so‘z yuritar ekan, Ibn Sino shunday deydi: “Ma’rifatchi (orif) botir odam bo‘ladi, shunday bo‘lmay ham bo‘larmidi! U o‘limdan ham qo‘rqmaydigan, sahovat egasi bo‘ladi, shunday bo‘lmay ham bo‘larmidi! U barcha behad narsalarga hirs qo‘yishdan uzoq va barcha adashganlarga mehribondir, shunday bo‘lmay ham bo‘larmidi! U o‘z nafsoniyati bilan ulug‘vor bo‘ladi, shunday bo‘lmay ham bo‘larmidi!”

Alisher Navoiy (1441 – 1501) o‘zbek adabiyotining asoschisidir. SHu bilan birga, u pedagog-mudarris hamdir. O‘z asarlarida, ayniqsa “Mahbub-ul-qulub” asarida kasb axloqi, turli guruh kishilarining odobi, mahorati masalalarini maqolalar shaklida yoritadi. U ta’lim-tarbiya masalalariga alohida e’tibor berar ekan, tarbiya jarayonining mazmunini, axloq-odob talablarini ko‘rsatadi. Ta’limda ilmiylik, asoslanganlik, tarixiylik kabi prinsiplarni asos qilib oladi. O‘z davridagi musulmon maktablarining yutuq va kamchiliklarini tahlil qiladi. O‘qituvchi odobi, muallimlik kasbi, mudarrislar, maktabdorlar to‘g‘risida gapirar ekan, muallim o‘z shogirdlarini va ta’lim berayotgan fanini sevishi zarur deydi. O‘ziga ham, o‘quvchiga ham talabchan bo‘lishi lozimligini uqtiradi. O‘qituvchi jamiyatda obro‘li va hurmatga loyiq insondir, deb hisoblaydi. SHogirdlar muallimni hurmat qilishlari, e‘zozlashlari zarurligini uqtiradi.

Alisher Navoiy o‘z zamonasidagi maktabdorlar (muallimlar) haqida gapirib, ular bolalarga jabr qilish, azob berish, kaltaklashga o‘rganib qolishganini tanqid qiladi. Ular toshbag‘ir, darg‘azab, gunohsizlardan achchiqlanishga odatlanishganligini ko‘rsatadi. Muallimlardagi bu salbiy sifatlar tarbiya jarayonining qiyinchiliklaridan, bolalarning tabiati, fe‘l-atvori, fahm-farosati turli-tumanligi ta’sirida vujudga keladi, deb hisoblaydi.

Navoiyning “Mahbub-ul-qulub” asarida o‘qituvchi odobiga doir quyidagi talablar bayon etilgan:

– mudarris ota-onasining mansabi, boyligiga qarab bolaga muomala qilmasligi lozim;

– muallim bolalarga o‘zi bilgan narsalarini o‘rgatishi, bilmagan ilmlarini o‘rgatishga urinmasligi kerak;

– gerdayish, manmanlik, ta’magirlik, nodonlik kabi illatlar o‘qituvchi axloqiga yot sifatlardir;

– muallim yaramas ishlardan, nopoklikdan yiroq bo‘lishi kerak;

– xalq nazarida olim hisoblanadigan mudarrislar yomon ishlardan, fisqu-fasoddan o‘zlarini tiya bilishlari zurrur.

O‘qituvchining kasb mahoratini tarbiyalashning mohiyati to‘g‘risidagi mulohazalar «Qobusnoma», «Qutadg‘u bilig» kabi buyuk asarlarda ham bayon etib berilgan. Chunki bu asarlarning barchasi odobnomaning xuddi o‘zginasi bo‘lganligi sababli tarbiyachi-murabbiyning o‘ziga xos xislatlarining shakllanishi bosqichlari ifodalab berilgan.

XIX–XX asrlarda davom etgan Turkistondagi jadidlar harakatining asoschilaridan biri, buyuk ma’rifatparvar o‘qituvchi, mohir tadqiqotchi Abdulla Avloniy ta’lim tizimini, o‘qitishni takomillashtirib, o‘qituvchilar malakasini oshirish, bo‘lg‘usi o‘qituvchini tayyorlash muammolariga mutlaqo yangicha yondashgan olimdir. Uning fikricha, ijodiy izlanish, o‘qish va o‘qitishning yangi shakli, uslub hamda vositalarini qidirish o‘qituvchining eng muhim sifatlardan biri hisoblanadi.

Shunday qilib, Markaziy Osiyo mutafakkirlari va o‘zbek ma’rifatparvarlari o‘qituvchi kuchli xotiraga, iroda va tafakkurga, aql-zakovatga, chiroyli nutqqa ega bo‘lishi, ko‘zlagan maqsadni amalga oshirish yo‘lida jonbozlik, qat’iyatlik ko‘rsatishi, o‘quvchilarning ruhiy dunyosiga to‘g‘ri yo‘l topa olishi, ularga ta’sir o‘tkazish imkoniyatiga ega bo‘lishi, vijdonli, samimiy, odobli, nazokatli, ishchan, mas’ul shaxs sifatida faoliyat ko‘rsatishi zarur ekanligini o‘z asarlarida ta’kidlab o‘tadilar.

CHEGARA QO‘SHINLARI TAKTIKASI SIKLI BOSHLIG‘I
podpolkovnik

SH. Yuldashev